

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ADILOVA MANZURAXON RAVSHANOVNA

**MIOFUNKSIONAL KORREKSIYA VA LOGOPEDIK MASSAJ
ASOSIDA REABILITATSION ISHNI TASHKIL ETISH
TEXNOLOGIYALARI**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Adilova Manzuraxon Ravshanovna

Miofunktsional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyalari 3

Адилова Манзурагон Равшановна

Технологии организации реабилитационной работы на основе миофункциональной коррекции и логопедического массажа..... 25

Adilova Manzurakhon Ravshanovna

Technologies for organizing rehabilitation work based on myofunctional correction and logopedic massage49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ADILOVA MANZURAXON RAVSHANOVNA

**MIOFUNKSIONAL KORREKSIYA VA LOGOPEDIK MASSAJ
ASOSIDA REABILITATSION ISHNI TASHKIL ETISH
TEXNOLOGIYALARI**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6699 - raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz tilida (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muxabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Turg‘unboyev Sirojiddin Faxriddinovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@yedu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____ da _____-raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

M.E.Mamarajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida bolalar serebral falajini reabilitatsiya qilishda multidissiplinar yondashuvlarning yangi usullari amaliyotga tadbiq etilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bolalar serebral falajligining tarqalishi 1000 nafar tug'ilgan chaqaloqqa 2-3 holatni tashkil etadi. "International Association of Logopedics and Phoniatrics (IALP)"¹, "American Speech-Language-Hearing Association (ASHA)"² jamiyatlari tomonidan ilgari surilgan ilmiy konsepsiyalar asosida, yuz-jag' sohasidagi funksional buzilishlari mavjud bolalarda orofatsial mushaklarning tonusini normallashtirish, chaynash va yutish funksiyalarini rivojlantirish, artikulyatsion apparatning motor ko'nikmalarini shakllantirish, ekspressiv va impressiv nutqning sifatini yaxshilash hamda nutqiy va umumiy motorika o'rtasidagi koordinatsiyani ta'minlashga qaratilgan kompleks differensial yondashuv tizimli amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bolalar serebral falajli bolalarning 60–80%da nutq buzilishlari, ulardan 40–50%da spastik dizartriya uchrashi sabablari, og'iz-yuz mushaklari va miofunktional buzilishlarning nutq va hayot sifatini aniqlash ta'sirini belgilash, og'iz-yuz mushaklari buzilishlarining nutq, chaynash, yutish, nafas olish kabi hayotiy muhim funksiyalarga salbiy ta'sirini o'rganish, miofunktional korreksiya va logopedik massaj metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Serebral falajli bolalarda nutq va oral-motor buzilishlarning korrelyatsiyasini, davolash usullarining samaradorligini va nutq funksiyalari rivojlanishining prognostik faktorlarini o'rganish, innovatsion texnologiyalarni miofunktional korreksiyada qo'llash samaradorligini baholash, multidissiplinar yondashuv asosida korreksion-logopedik ishni tashkil etish masalalariga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda turli kasalliklarni erta tashxislash va asoratlarini kamaytirishga qaratilgan keng qamrovli dasturiy tadbirlarni takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "...ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish orqali oilalarning mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi sabablarni bartaraf etish va oila a'zolarining mehnat qilishiga sharoit yaratish, shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalarning oila qaramog'ida qolishini ta'minlash va ijtimoiy yetimlikning oldini olish maqsadida: 3 yoshdan 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar kunduzgi parvarish xizmati yo'lga qo'yiladi"³, deb ta'kidlangan. Natijada, bolalar serebral falaji natijasidagi spastik dizartriya mavjud bo'lgan bolalarni o'z vaqtida tashxislash va sifatli davolash, ularga miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitasion yordam ko'rsatish, kichik va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish, shuningdek, ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlashning korreksion maqsadlari yo'lidagi harakatlarni kengaytirish imkoniyatlari oshadi.

¹ <https://ialp-org.com/>

² <https://www.asha.org/>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2025 yildagi "Nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ 41-sonli qarori. (Lex.uz).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-noyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida, 2025-yil 3-fevraldagi PQ-41-son “Nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 29-dekabrda PQ-3440-son “2018–2022-yillarda bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash davlat dasturi to‘g‘risida” qarorlarida hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy, ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda nutq rivojlanmaganligi jihatlari Z.Axmedova, M.Ayupova, N.Abidova, Y.Babayeva, O.Bozorov, D.Gapurova, L.Mo‘minova, X.Po‘latova, N.Raxmonkulova, Sh.Toxtiyarova, Sh.Turdaliyeva, Sh.Shokirova, V.Veretennikova, S.Xodjabekova; dizartriya nutq buzilishlarini aniqlash va korreksiyalash S.Achilova, M.Mamatova, Z.Sobirova; jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalashning korreksion-pedagogik tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha N.Abidova, Sh.Amirsaidova, M.Daminova, Z.Mamarajabova, D.Nazarova, D.Nurkeldiyeva, L.Nurmuxamedova, V.Raxmonova, N.Sosedova, U.Fayziyeva, M.Xakimova, M.Xamidova, I.Xamrayeva, R.Shomaxmudova, D.Yakubjanovalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

MDH mamlakatlarida dizartriya korreksion-logopedik yondashuvlar orqali samarali bartaraf etishning ilmiy asoslangan kompleks reabilitatsion tizimini takomillashtirish Y.Arxiyeva, L.Lopatina, Y.Mastyukova, I.Panchenko, O.Prixodko, K.Semenova, N.Simonova, I.Smirnova, O.Tokareva, M.Sheremet, L.Shipitsinalarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijiy mamlakatlarda bolalar serebral falaji asosida rivojlangan spastik dizartriya klinik-funksional tavsiflash va bartaraf etishning ilmiy-metodologik asoslari K.Yorkston, D.Beukelman, E.Strand, R.Kent, L.Pennington, N.Miller, J.Darley, A.Aronson, J.Brown, E.Carrow-Woolfolk, F.Plante, H.Dworkin, P.Doyle, A.Smith, J.Duffy, P.Hustad, L.Shriberg, L.Thompsonlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertasiya

tadqiqoti O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta‘lim-resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020–2024-yy.).

Tadqiqotning maqsadi miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bolalar serebral falajligi natijasida rivojlangan spastik dizartriayda og‘iz-yuz mushaklari va miofunktional buzilishlarning simptomatik-etiopatogenetik imkoniyatlarini aniqlash;

spastik dizartriayada miofunktional korreksiya va logopedik massajni qo‘llashning “miofunktional-logopedik reabilitasiya” modelini takomillashtirish;

bolalar serebral falajligi natijasida rivojlangan spastik dizartriayada miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyalari mazmunini takomillashtirish;

bolalar serebral falajligi natijasida rivojlangan spastik dizartriayada miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil etishga qaratilgan texnologiyalar va ularning samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahridagi Respublika bolalar ruhiy-asab kasalliklari shifoxonasi, 560-sonli, 480-sonli ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, Qo‘qon shahridagi 39-sonli va Samarqand shahridagi 78-ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar serebral falajligi natijasida rivojlangan spastik dizartriayali, maxsus ta‘limga 117 nafar bolalar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy, metodik, pedagogik adabiyotlar, manbalar, DS, o‘quv reja, istiqbol reja, fan dasturlari, darsliklarni, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bolalar serebral falajligi natijasida rivojlangan spastik dizartriayada og‘iz-yuz mushaklari va miofunktional buzilishlarining simptomatik-etiopatogenetik imkoniyatlari nutq buzilishlarida qo‘llanilgan davolash usullari va muddatlariga bog‘liqlik klinik belgilarga ta‘sir etuvchi ijtimoiy, biologik-irsiy, terapevtik-reabilitatsion, tashkiliy-metodik omillarning murakkab nisbatiga ko‘ra motor ko‘nikmalarni sensor integratsiya darajasi orqali tadrijiy kuzatish asosida aniqlashtirilgan;

spastik dizartriya "miofunktional-logopedik reabilitatsiya" modeli miofunktional holatning nutq funksiyasi va kommunikativ ijtimoiy mezonlarning diagnostik-rivojlantiruvchi ta'lim muhitida neyrodinamik maqsadlar orqali shaxsning neyrokognitiv barqarorligiga ko'ra uyg'unlashuvini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

bolalar serebral falajligi natijasida rivojlangan spastik dizartriya miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyalari erta yordam, kompensator imkoniyatlarning shakllanishi uchun zarur sensomotor ta'lim muhiti, ixtisoslashtirilgan korreksiya, nutqiy nafas va ovozni rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlash muhimligi tufayli nutqiy va motor ko'nikmalar neyrologopedik yondashuvga ko'ra takomillashtirilgan;

bolalar serebral falajligi natijasida rivojlangan spastik dizartriya reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyasining samaradorligi artikulyatsion apraksiyani baholashga yo'naltirilgan differensial diagnostika yordamida orofatsial sohadagi proprioseptiv sensorikaning rivojlanganligi hamda gnosto-praksik funksiyalarni, orofatsial mushaklarga yo'naltirilgan taktil-kinestetik stimulyatsiyani nutq funksiyalariga bog'liq namoyon bo'lishiga ko'ra oral-motorli miogimnastikani qo'llash asosida oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

klirik amaliyotda serebral falajli bolalarni davolash bilan shug'ullanadigan tibbiy reabilitatsiya markazlari, bolalar poliklinikalari va shifoxonalarida qo'llanishi mumkin bo'lgan miofunktional korreksiya va logopedik massaj protokollari BSFLi bolalarni kompleks reabilitatsiya qilish dasturlariga kiritilgan;

maxsus pedagogik ta'lim muassasalarida: maxsus (korreksion) maktablar, davlat va ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari, inklyuziv ta'lim markazlarida spastik dizartriya bolalar bilan olib boriladigan logopedik massaj va miofunktional korreksiyaning integrativ metodikalari rivojlantirilgan;

logoped, defektolog, reabilitologlar uchun miofunktional korreksiya va logopedik massaj bo'yicha trening va master-klass shakllari takomillashtirilgan;

serebral falajli bolalarning nutq-motor funksiyalarini rivojlantirishga qaratilgan miofunktional korreksiya va logopedik massaj jarayonlarini metodik jihatdan ta'minlash maqsadida "Fonopediya asoslari" nomli o'quv qo'llanmasi yaratilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-son qarori asosida berilgan 429-444-raqamli nashr ruxsatnomasi).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublikamiz va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materillari to'plami, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar va ularga taqrizlar, respondentlar bilan o'tkazilgan savol-javoblar; intervyular, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilgani, ularning natijasi sifati va samaradorligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, spastik dizartriya sharoitida miofunktional korreksiya va logopedik massajning nazariy asoslari, neyrofiziologik mexanizmlari va ta'sir tamoyillarini chuqur ochib berishi orqali "neyrologopediya" va "miofunktional logopediya"ning zamonaviy yo'nalishlari rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot davomida aniqlangan miofunktional ta'sirning spastiklikda qo'llanish xususiyatlari serebral falajli bolalarda logopedik korreksiyaning nazariy doirasini kengaytirib, "artikulyatsion-miofunktional paradigma"ning takomillashuviga xizmat qiladi. Shuningdek, olingan ilmiy natijalar logopediya, neyropedagogika va neyroreabilitatsiya fanlarining integratsion rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, tibbiy va pedagogik yondashuvni birlashtiruvchi kompleks reabilitatsiya konsepsiyasining shakllanishiga asos yaratadi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan miofunktional-logopedik diagnostika va korreksiya esa logopediya fanining metodologik poydevorini boyitib, keyingi ilmiy izlanishlar uchun zarur nazariy asosni taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan serebral falajli bolalarda spastik dizartriyaning korreksiyalash uchun kompleks miofunktional-logopedik dastur logopedlar, defektologlar va reabilitologlar amaliy faoliyatida qo'llanilishi mumkin; tadqiqot davomida aniqlangan spastiklik sharoitida miofunktional korreksiya va logopedik massaj texnikalarining xususiyatlari BSF li bolalar bilan ishlaydigan logopedlar uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi; miofunktional korreksiya va logopedik massaj samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar logopedik-korreksion jarayonni takomillashtirishga hamda dizartriya bolalarning ota-onalari uchun miofunktional-logopedik mashqlarni uy sharoitida o'tkazish imkonini beradi, bu esa logopedik korreksiyaning uzluksizligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida: bolalar serebral falajligi natijasida rivojlangan spastik dizartriya og'iz-yuz mushaklari va miofunktional buzilishlarining simptomatik-etiotogenetik imkoniyatlarini nutq buzilishlarida qo'llanilgan davolash usullari va muddatlariga bog'liqlik klinik belgilarga ta'sir etuvchi ijtimoiy, biologik-irsiy, terapevtik-reabilitatsion, tashkiliy-metodik omillarning murakkab nisbatiga ko'ra motor ko'nikmalarni sensor integratsiya darjasi orqali tadrijiy kuzatish asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Fonopediya asoslari" nomli o'quv qo'llanmasining mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 12-iyundagi 11-05-3818/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning fanga doir bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

spastik dizartriya "miofunktional-logopedik reabilitatsiya" modelini miofunktional holatning nutq funksiyasi va kommunikativ ijtimoiy mezonlarning diagnostik-rivojlantiruvchi ta'lim muhitida neyrodinamik maqsadlar orqali shaxsning neyrokognitiv barqarorligigiga ko'ra uyg'unlashuvini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Fonopediya asoslari" nomli o'quv qo'llanmaning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 12-iyundagi 11-05-3818/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, ko'p tarmoqli, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, nutq markazlarida logopedlar tomonidan bolalar nutq kamchiliklarini aniqlash, to'g'ri tashxis qo'yish hamda korreksion-logopedik ish sifatining oshirilishiga xizmat qilgan;

bolalar serebral falajligi natijasida rivojlangan spastik dizartriya miofunksional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyalarini erta yordam, kompensator imkoniyatlarning shakllanishi uchun zarur sensomotor ta'lim muhiti, ixtisoslashtirilgan korreksiya, nutqiy nafas va ovozni rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlash muhimligi tufayli nutqiy va motor ko'nikmalar neyro-logopedik yondashuvga ko'ra takomillashtirishga oid takliflar "Fonopediya asoslari" nomli o'quv qo'llanmaning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 12-iyundagi 11-05-3818/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik-didaktik aspektlari takomillashtirilgan;

bolalar serebral falajligi natijasida rivojlangan spastik dizartriya reabilitatsion ishni tashkil etish texnologiyasining samaradorligini artikulyasion apraksiyani baholashga yo'naltirilgan differensial diagnostika yordamida orofatsial sohadagi propriotseptiv sensorikaning rivojlanganligi hamda gnosto-praksik funksiyalarni, orofatsial mushaklarga yo'naltirilgan taktil-kinestetik stimulyasiyani nutq funksiyalariga bog'liq namoyon bo'lishiga ko'ra oral-motorli miogimnastikani qo'llash asosida oshirishga oid tavsiyalar "Fonopediya asoslari" nomli o'quv qo'llanmaning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 12-iyundagi 11-05-3818/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, dizartriya bolalar bilan korreksion logopedik ishlarni tashkil qilish hamda ikkilamchi buzilishlarning oldini olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amalda joriy etilishi holati, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

"Bolalar serebral falaji asosida kelib chiqadigan spastik dizartriyaning nazariy-metodologik asoslari" deb nomlangan birinchi bobda bolalar serebral falaji asosida rivojlangan spastik dizartriyaning etiopatogenetik mexanizmlari, orofatsial sohadagi miofunksional buzilishlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda spastik

dizartriya da miofunktional korreksiya va logopedik massajning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan.

G.V.Yatsik ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda sog'lom bolalarning tug'ilish ko'rsatkichi 48,3% dan 26,5%-36,5% ga tushib ketdi, 80% bolalar fiziologik jihatdan to'liq yetilmagan holda, 86% dan yuqori bolalar markaziy nerv sistemasining (MNS) perinatal kasalliklari bilan tug'ilmoqda. Bugungi kunda bolalarda uchrayotgan turli nevrologik patologiyalarni bartaraf etishga qaratilgan korreksion-logopedik yordam masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Bolalar serebral falaji – markaziy nerv tizimining homiladorlik, intranatal va erta postnatal davrda progressivlanmaydigan shikastlanishi oqibatida yuzaga keladigan harakat va holat buzilishlari guruhidir. Rosenbaum ta'rifiga ko'ra, bu rivojlanayotgan miya to'qimasining shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan harakat va tana holatining buzilishlari bilan tavsiflanadigan nevrologik buzilishdir.

BSFning asosiy simptomi hisoblangan harakat buzilishlari ko'pincha nutq hamda oral-motor reflekslardagi buzilishlar, psixik rivojlanish va sezgi a'zolaridagi nuqsonlar bilan birga keladi. Bu toifa bolalarning psixologik holatlari bilan V.V.Lebedenskiy, L.S.Vigotskiy, B.Kapper, G.Y.Suxarevalar shug'ullanishgan.

BSfli bolalarda ruhiy infantilizm belgilari kuzatiladi – ularning hissiy doirasi cheklangan, yuz ifodalari yuzaki bo'ladi. Zamonaviy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, BSfli bolalarda o'ziga xos qo'ruqlar (balandlik, qorong'ulik, yopiq joylar, yangi vaziyatlar) kuzatiladi. Luriyaning neyropsixologik nazariyasi miyaning organik shikastlanishi birlamchi harakat-sezgi buzilishlariga va ikkilamchi kognitiv-motivatsion o'zgarishlarga olib kelishini ta'kidlaydi. Natijada, bolaning ruhiyati ambivalentlik bilan tavsiflanadi: “sog'ayish” va harakat funksiyalarini normallashtirishga samimiy intilish bilan bir qatorda, u o'zini “to'liq emas” deb his qiladi. Shuning uchun maxsus pedagogika va psixologik yordamda depressiv-xavotirli reaksiyalar rivojlanishining oldini oluvchi kasallikni to'g'ri qabul qilish va bolaning ijtimoiy moslashuvi uchun sharoit yaratish vazifasi muhim hisoblanadi.

Bolalar serebral falajligi dunyo bo'yicha tug'ilish chastotasi har 1000 tirik tug'ilgan chaqaloqning 1.5–4 nafarida uchraydi. Rivojlangan mamlakatlarda 2–2.5 holat, rivojlanayotgan mamlakatlarda 3–5 holat har 1000 tug'ilishga to'g'ri kelmoqda.

XKT-10 (xalqaro kasalliklar tasnifi) bo'yicha bolalar serebral falajining beshta shakli ajratiladi: spastik diplegiya, ikki tomonlama gemiplegiya, gemiparetik shakl, giperkinetik shakl, atonik-astatik shakl. BSfli bolalarda turli xil harakat buzilishlari, jumladan mushak tonusining buzilishi (spastiklik, rigidlik, gipotoniya, distoniya), ixtiyoriy harakatlarning cheklanishi, zo'riqish harakatlarining mavjudligi, muvozanat va harakatlar muvofiqlashuvining buzilishi kabi holatlar kuzatiladi. K.A.Semyonova BSFda harakat rivojlanishining patologiyasi darajalarini ajratib ko'rsatgan.

V.Kardvellning ma'lumotlariga ko'ra, nutqiy patologiyani 73% holatlarda kuzatish mumkin. K.A.Semyonovanning fikricha esa, nutq nuqsonlarining kuchayishi falajlikning turiga bog'liqdir. Xususan, spastik diplegiyada 70% bolalarda dizartriya kuzatiladi, gemiparetik turida 25-35% bolalar dizartriya nuqsoniga ega bo'ladi, giperkinetik turning 90% hollarida dizartriya kuzatiladi. Atonik-astatik turning 60-75%, ikki tomonlama gemiplegiyada doimo og'ir ko'rinishdagi dizartriya yoki anartriya kuzatiladi.

Og‘ir nutq kamchiligiga ega bolalarning nutqiy rivojlanishi, motor va sensor funksiyalarining tiklanishi, maktabga tayyorlash jarayoni hamda murakkab nuqsonli bolalarda nutqiy buzilishlarni korreksiyalash masalalari respublikamiz olimlari S.J.Achilova, M.B.Mamatova, Z.I.Sabirova va Sh.X.Turdaliyeva tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda atroflicha yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda dizartriya bolalarda uchraydigan nutqiy kamchiliklarning kelib chiqish sabablari, ularning klinik ko‘rinishlari hamda umumiy korreksion-pedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan tuzatish usullari tizimli ravishda tahlil qilingan.

Dizartriya o‘rganish va korreksiyalash muammolarini Y.F.Arkipova, Y.N.Vinarskaya, L.V.Lopatina, Y.M.Mastyukova, O.V.Pravdina, K.A.Semenova, N.V.Serebryakova, Y.F.Sobotovich, G.V.Chirkinalar o‘rganishgan. Dizartriya tasniflashda jarohatlanish o‘chog‘ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizartriya bulbar, psevdobulbar, qobiqli, qobiqosti va miyachali turlarga ajratadilar.

BSFga ega bo‘lgan bolalarda og‘iz-yuz sohasi mushaklari funksiyalari buzilishlari J.Duffy, K.Kitsulle, Y.F.Arkipova, I.I.Mamaychuk, A.S.Vitenzon tadqiqotlarida birlamchi va ikkilamchi buzilishlarga ajratiladi. Bunda tilning harakatchanligi, yumshoq tanglay funksiyasi, chaynash mushaklari, mimik mushaklar, til, lablar, hiqildoq mushaklarining koordinatsiyasi buziladi. O‘tkazilgan tadqiqotlarda spastik dizartriya bolalarda og‘iz motorikasi disfunktsiyasini baholash uchun standartlashtirilgan “Oro-Motor Assessment Scale” (OMAC) testi qo‘llangan va 92% bolalarda oral motor disfunktsiyasi aniqlangan.

Miofunktional korreksiyaning ilmiy asoslarini XIX asrda Yevropa va AQSh ortodontlari hamda logopedlari ishlab chiqqan. Ortodont Rojers tishlarni me‘yorda o‘sishi uchun maxsus yuz mashqlarini ishlab chiqqan, Lischer esa Rodjersning mashqlarini “miofunktional terapiya” nomli dasturiga kiritib ortodontiya kitobini nashr qiladi va bu termin hozirgacha aktual hisoblanadi. Jon Mew, Robert Hanson, Rudolf Slavich, Y.V.Kostina, V.M.Chapala, Jayanti Rey, Licia Coceani Pascay, Sabina Sakkomano, V.V.Xarkelar miofunktional korreksiyaning zamonaviy ilmiy asoslarini tadqiq etishgan va takomillashtirishgan.

Logopedik massaj va miofunktional korreksiyaning ta‘sir samaradorligi ta‘sir jarayonining nevroplastiklik, sensor integratsiya, mushak tonusi regulyatsiyasi, motor ko‘nikmalarni shakllantirish va afferent-efferent aloqalarni yaxshilash kabi neyrofiziologik mexanizmlarga asoslanadi. V.Voyta, K. va B.Bobathlar, B.Kapelle kabi tadqiqotchilar BSFda korreksion-pedagogik ishlarning turli metodikalarini ishlab chiqqanlar.

Dissertatsiyada miofunktional korreksiya bu nutq apparati va yuz-jag‘ sohasi mushaklarining funktsional tizimiga ta‘sir etish orqali fiziologik jarayonlarni normallashtirishga va patologik reflekslar, stereotiplar va kompensator mexanizmlarni bartaraf etishga imkon berishga qaratilgan maxsus mashqlar, usullar va metodikalar majmuasi deb ta‘riflangan. Logopedik massaj va miofunktional korreksiyaning samaradorligi quyidagi neyrofiziologik mexanizmlarga asoslanadi: nevroplastiklik, sensor integratsiya, mushak tonusi regulyatsiyasi, motor ko‘nikmalarni shakllantirish va afferent-efferent aloqalarning yaxshilanishiga qaratilgan bo‘lib, differensial yondashuv, dozalangan stimulyatsiya, bosqichli-ketma-ketlik, komplekslilik va individuallashtirish tamoyillariga asoslanadi.

Spastik dizartriya'dagi nutq buzilishlarini korreksiyalashda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun nafaqat texnikalarning to'g'ri tanlanishi, balki ularning muntazamligi, davomiyligi va individual yondashuvga ham bog'liq ekanligi aniqlangan. Har bir bola uchun spastiklik darajasi va xarakteriga qarab individual dastur tuzish muhim.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, spastik dizartriya bolalarda miofunktional korreksiya va logopedik massajning integratsiyalashgan metodikalarini qo'llash og'iz-yuz mushaklarining faoliyatini yaxshilash, artikulyatsion harakatlar amplitudasini oshirish, nutq tempini optimallashtirish va nutq tushunarligi darajasini sezilarli darajada oshirishga olib keladi. Jumladan, oral motorikani rivojlantirishga yo'naltirilgan PROMPT, NMES, OPT, MOST-T, SORE kabi turli xil maxsus dasturlar ishlab chiqilgan va samaradorligi isbotlangan. Tadqiqotlar natijasida spastik dizartriya bolalarda yaxshi natijalarga erishish uchun miofunktional korreksiya va logopedik massajni boshqa korreksion va reabilitatsion usullar bilan integratsiyalash zarur deb topilgan.

Birinchi bobda o'tkazilgan nazariy-metodologik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, miofunktional korreksiya va logopedik massaj kombinatsiyasi spastik dizartriya bolalarda nutqning tushunarligini va chaynash-yutish funksiyalarini yaxshilash uchun istiqbolli va ilmiy asoslangan yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy tahlillari asosida quyidagilar aniqlangan: bolalar serebral falaji – homiladorlikning ilk davrlarida markaziy nerv tizimining progressivlanmaydigan shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan harakat va holat buzilishlari guruhidir; XKT-10 bo'yicha BSFning beshta asosiy shakli ajratiladi; spastik dipregiyada 70% bolalarda dizartriya, gemiparetik turida 25–35% hollarda, giperkinetik turning 90% hollarda dizartriya nutq nuqsoni kuzatiladi; BSFli bolalarda og'iz-yuz sohasi mushaklarining disfunktsiyasi yuz mushaklari (78,5%), chaynash va yutish (82,2%), til funktsiyasi (94,6%), og'iz-burun nafas olish (92%) va so'lak ajralishi (68%) buzilishlarida namoyon bo'ladi; bu holatlar spastiklik, mushak gipertonusi va mushaklar koordinatsiyasining buzilishi bilan bog'liq; miofunktional korreksiya va logopedik massajning samaradorligi neyroplastiklik, sensor integratsiya, mushak tonusi regulyatsiyasi va motor ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlariga asoslanadi; spastik dizartriya'da qo'llanadigan maxsus dasturlar nutq tushunarligi (68%), artikulyatsiya (72%), mushak tonusi (55%) va ovqatlanish funktsiyalarini (65%) yaxshilash imkonini beradi; kompleks ko'rinishdagi korreksion-logopedik ishlar bola rivojlanishining barcha sohalarini qamrab olib, individual yondashuvga asoslanishi kerak.

Dissertatsiyada bolalar serebral falaji asosida rivojlangan spastik dizartriya muammosini hal qilishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan va uning yechimi sifatida miofunktional korreksiya va logopedik massajga asoslangan korreksion-logopedik ish tizimi taqdim etilgan, bu esa bola rivojlanishining muhim davrida to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, nutqiy va og'iz-yuz sohasi mushaklari faoliyatidagi buzilishlarni samarali bartaraf etish va nutqning tushunarligini sezilarli darajada oshirish imkonini berishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Serebral falajlik natijasidagi spastik dizartriya bolalarda miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida reabilitatsion ishni tashkil**

etish texnologiyalari” deb nomlangan ikkinchi bobida bolalar serebral falaji asosida rivojlangan spastik dizartriyaning korreksiyalashning klinik-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Bolalar serebral falaji asosida rivojlangan spastik dizartriyaning korreksiyalashning klinik-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muammosi zamonaviy neyrorabilitologiya va defektologiyaning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Nevrologik asosda rivojlangan nutq patologiyalarini korreksiyalashning an’anaviy metodologik yondashuvlari tahlili Y.N.Vinarskaya, Y.F.Arkipova, A.V.Miklyaeva shuni ko’rsatadiki, miofunktional tizimlar va nutq funksiyasining o‘zaro dialektik bog‘liqligi neyrorabilitatsiyaning integrativ yondashuvlarini qo‘llashni taqozo etadi.

Mazkur nazariy-metodologik baza asosida “Miofunktional-logopedik rehabilitatsiya” modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang). Bu tizimli model spastik dizartriyaning korreksiyalashning samaradorligini oshirishning yangi metodologik yondashuvini taklif etadi. Mazkur model Xalqaro funktsional imkoniyatlar, nogironlik va salomatlik klassifikatsiyasi (ICF) tamoyillariga asoslangan bo‘lib, funktsional buzilishlardan faoliyat va ijtimoiy ishtirok darajasigacha bo‘lgan tizimli rehabilitatsiya konsepsiyasini qamrab oladi.

Dissertatsiyada miofunktional-logopedik rehabilitatsiya modeli to‘rtta asosiy blokdan iborat. Har bir blok o‘zaro bog‘liq bo‘lgan komponentlarni o‘z ichiga olishi va ularning o‘zaro muvofiqligi rehabilitatsiya samaradorligini ta’minlashi aniqlangan.

Maqsadli blok rehabilitatsiya modelining yo‘nalishini belgilab beruvchi asosiy komponent bo‘lib, rehabilitatsiyaning umumiy maqsadi BSF asosida rivojlangan spastik dizartriya bolalarda miofunktional korreksiya va logopedik massaj integratsiyasi orqali nutq tushunarligini oshirish, kommunikativ funksiyani yaxshilash va ijtimoiy adaptatsiyani optimallashtirishdan iborat.


Mazmunli blok rehabilitatsiya jarayonining asosiy yo‘nalishlari va komponentlarini o‘z ichiga oladi: diagnostik, korreksion, profilaktik va konsultativ-metodik komponentlar.

Tashkiliy-jarayonli blok miofunktional-logopedik rehabilitatsiya jarayonini amalga oshirish texnologiyasini, rehabilitatsiyaning bosqichlarini, shakllari va metodlarini o‘z ichiga oladi. Rehabilitatsiya bosqichlari jarayoni 5 ta asosiy bosqichdan iborat: diagnostik, tayyorgarlik, asosiy korreksion, funktsional-kommunikativ va qo‘llab-quvvatlovchi bosqichlar.

Natijaviy-baholovchi blok miofunktional-logopedik rehabilitatsiya samaradorligini baholash mezonlari va kutilayotgan natijalarni o‘z ichiga oladi. Baholash mexanizmlari quyidagi turlarni qamrab oladi: boshlang‘ich baholash, joriy baholash, yakuniy baholash va kechiktirilgan baholash.

Tadqiqot davomida BSFli bolalarda miofunktional korreksiya va logopedik massaj samaradorligini ta’minlovchi: logopedik shart-sharoitlar; korreksion-rivojlantiruvchi shart-sharoitlar; pedagogik-metodik shart-sharoitlar; tashkiliy-muhit shart-sharoitlar aniqlandi.

Logopedik shart-sharoitlar nutq buzilishlarining strukturasi, artikulyatsion apparat xususiyatlari, nutqning turli komponentlarini rivojlantirish va logopedik ta’sir mexanizmlarini hisobga olgan holda aniqlandi. Bu shart-sharoitlar miofunktional korreksiya va logopedik massajning logopedik amaliyot nuqtayi nazaridan samarali tashkil etilishini ta’minlovchi shartlardir.



1-rasm. "Miofunktional-logopedik reabilitatsiya" modeli

Korreksion-rivojlantiruvchi shart-sharoitlar miofunktsional korreksiya va logopedik massajning rivojlantiruvchi ta'sirini ta'minlash, korreksion jarayonning samaradorligini oshirish va uzoq muddatli natijalarga erishish uchun zarurdir. Bu shart-sharoitlarga neyrodinamik yondashuv, sensor integratsiya, krio-stimulyatsiya, vibratsion va termik stimulyatsiya kabi texnikalarning qo'llanishi kiradi.

Pedagogik-metodik shart-sharoitlar bolada nutq rivojlanishi uchun zarur bo'lgan pedagogik muhit, metodik ta'minot va ta'limiy sharoitlarni yaratish bilan bog'liq bo'lib, individual yondashuv, bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, oila a'zolarini jalb qilish, metodik materiallarning to'liqligi va sifatini ta'minlash kiradi.

Tashkiliy-muhit shart-sharoitlari miofunktsional korreksiya va logopedik massajni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy, moddiy-texnik va mikromuhit sharoitlarini o'z ichiga oladi. Bu shart-sharoitlarga bosqichma-bosqich korreksion ishlarni tashkil etish, interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish, bolaning kognitiv xususiyatlarini hisobga olish kiradi.

Tadqiqot davomida kompleks yondashuvning *mualliflik ta'rifi* ishlab chiqildi. Unga ko'ra, miofunktsional korreksiya bu nutq apparati va yuz-jag' sohasi mushaklarining funktsional tizimiga ta'sir etish orqali fiziologik jarayonlarni (nafas olish, chaynash, yutish, tovush hosil qilish) normallashtirishga va patologik reflekslar, stereotiplar va kompensator mexanizmlarni bartaraf etishga imkon berishga qaratilgan maxsus mashq, usul va metodikalar tizimidir.

Logopedik massaj – bu nutq apparati mushaklariga (lablar, lunjlar, til, yumshoq tanglay, pastki jag', bo'yin) yo'naltirilgan, nutq buzilishlarini korreksiyalashga qaratilgan maxsus manual ta'sir usuli.

Logopedik massaj mushaklar tonusini normallashtirish, periferik artikulyatsion apparatning harakatchanligini oshirish, fiziologik reflekslarni faollashtirish va patologik reflekslarni so'ndirish orqali mushaklar funktsional holatini yaxshilaydi va tovush talaffuzi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida BSF natijasidagi spastik dizartriyali bolalarda miofunktsional korreksiya va logopedik massaj shart-sharoitlarining bosqichli-ta'sirli tizimi 1-jadvalda keltirildi:

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, miofunktsional korreksiya va logopedik massaj samaradorligiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlar - korreksion-rivojlantiruvchi va logopedik shart-sharoitlar ekanligi aniqlandi. Eng samarali kombinatsiya "to'g'ri tanlangan logopedik massaj usullari + sensor integratsiya + multidissiplinar yondashuv" ekanligi tasdiqlandi. Ushbu kombinatsiyani qo'llagan BSFli spastik dizartriyali bolalarda sezilarli ijobiy natijalar (nutq tushunarligi va artikulyatsion harakatchanlikning oshishi, mushaklar tonusining me'yorlashuvi) kuzatildi.

Tadqiqot ishining **“Serebral falajlik natijasidagi spastik dizartriyali bolalarda miofunktsional korreksiya va logopedik massajning samaradorligini eksperimental tadqiq qilish”** nomli uchinchi bobida BSF natijasidagi spastik dizartriyali bolalarda miofunktsional korreksiya hamda logopedik massaj asosidagi rehabilitatsion ishlarning samaradorligiga doir tajriba-sinov ishlari va natijalarining tahlili yoritilgan.

BSFli spastik dizartriya bolalarda miofunktsional korreksiya va logopedik massaj shart-sharoitlarining bosqichli tizimi

Daraja	Shart-sharoitlar kompleksi	Amalaga oshirish mexanizmlari	Natijaviy ko'rsatkichlar	Amaliy ahamiyati
Asosiy	Logopedik massajning optimal rejimi; artikulyatsion apparat holatini baholash; faol-passiv mashqlar kombinatsiyasi	Spastiklik darajasiga mos massaj rejimi; kompleks diagnostika; optimal nisbatdagi faol va passiv mashqlar	Mushaklar tonusining me'yorlashuvi, artikulyatsion harakatchanlikning oshishi	Asosiy bazani ta'minlaydi, uning samaradorligi 45–50%
Rivojlantiruvchi	Sensor integratsiya; neyrodinamik yondashuv; metodik materiallar to'liqligi; individual yondashuv	Polimodal stimulyatsiya; Bobath elementlari; Bioakustik korreksiya; sifatli metodik materiallar; individual dastur	Umumiy mushaklar tonusining me'yorlashuvi, Nutq tushunarlilik va prosodik komponentlarning yaxshilanishi	Asosiy bazani kuchaytiradi, samaradorlikni 65–70% ga oshiradi
Barqarorlash tiruvchi	Multidisiplinar yondashuv; oila ishtiroki; reabilitatsiyaning uzluksizligi	Mutaxassislar hamkorligi; ota-onalarga o'rgatish; uzluksiz reabilitatsiya	Natijalar barqarorligi, uzoq muddatli ta'sir	Natijalarni mustahkamlaydi, samaradorlikni 75–80% ga oshiradi

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – BSF buzilishlari natijasida spastik dizartriya rivojlangan bolalarning miofunktsional holatini tiklash, shuningdek, ularning nutq funksiyalarini rivojlantirish bo'yicha yondashuv, metodika va samarali dasturni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda sinovdan o'tkazishdan iborat bo'ldi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish, tashkil etish va olingan empirik materiallarni tahlil qilish jarayoni pedagogik tadqiqot metodologiyasiga oid maxsus adabiyotlarda bayon etilgan ilmiy-metodik ko'rsatmalar va tavsiyalar asosida amalga oshirildi.

BSF natijasidagi spastik dizartriya nutqiy funksiyaning buzilishi alohida holda emas, balki umumiy, mayda motorika, nafas olish, chaynash va yutish kabi miofunktsional jarayonlarning kompleks buzilishlari bilan birgalikda namoyon bo'ldi. Shu bois korreksion-logopedik ishlar faqat nutqiy komponentlar bilan chegaralanmasdan, balki butun miofunktsional tizimga kompleks ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilishi zarur. Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodikada aynan shu yondashuv asosida logopedik massaj va miofunktsional korreksiya usullarining

integratsiyalashgan qo‘llanilishi ko‘zda tutildi. Shu sababli ishlab chiqilgan metodika va dasturda logopedik massaj hamda miofunktional korreksiyaning integratsiyalashgan usullari qo‘llandi.

Tajriba-sinov ishlari ta‘kidlovchi, ta‘limiy, nazorat shaklida amalga oshirildi. Tadqiqotda ularning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

ta‘kidlovchi tajriba-sinov vazifalari: BSF asosida spastik xarakterdagi dizartriya bo‘lgan 4–5 yoshdagi bolalarning nutqiy va miofunktional holatini o‘rganish; tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish; dastlabki ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish; bolalarning rivojlanish darajasini aniqlash;

ta‘limiy tajriba-sinov vazifalari: ishlab chiqilgan metodika va ta‘limiy dasturni tajriba guruhida qo‘llash; ta‘limiy dastur mashg‘ulotlarini o‘tkazish; ta‘lim jarayonini monitoring qilish va kerakli tuzatishlar kiritish; ota-onalar bilan ishlash dasturini amalga oshirish;

nazorat tajriba-sinov vazifalari: ta‘limiy tajriba-sinov ishlaridan so‘ng bolalarning nutqiy va miofunktional holatidagi o‘zgarishlarni aniqlash; tajriba va nazorat guruhlarini natijalarini qiyosiy tahlil qilish; natijalarning barqarorligini tekshirish; metodika va ta‘limiy dasturning samaradorligini baholash.

BSF natijasidagi spastik dizartriya bo‘lgan 4–5 yoshdagi bolalarning nutqiy va miofunktional holatini eksperimental o‘rganish Toshkent shahridagi U.K.Qurbonov nomidagi Respublika bolalar ruhiy-asab kasalliklari shifoxonasida o‘tkazildi. Tajribada 117 nafar bola ishtirok etdi.

Ta‘kidlovchi tajriba-sinov ishlari natijalari BSF natijasidagi spastik dizartriya bolalarning miofunktional holatini rivojlantirish ehtiyojlarini tahlil qilish va tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash yo‘nalishlarida tahlil etildi.

Ta‘kidlovchi tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan bolalar orasida miofunktional holatning rivojlanganligining yuqori darajasi 9%, o‘rtacha darajasi 45% va past darajasi 46% BSF natijasidagi spastik dizartriya bolada aniqlandi. Nutq funksiyasi bo‘yicha yuqori daraja 7%, o‘rtacha daraja 37% va past daraja 56% bolalarda kuzatildi. Kommunikativ-ijtimoiy mezon bo‘yicha esa yuqori daraja 12%, o‘rtacha daraja 44% va past daraja 44% bolalarda qayd etildi.

Tadqiqot olib borishda 4–5 yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari nazarda tutildi. Ta‘limiy tadqiqot tajriba-sinovi Toshkent shahridagi Respublika bolalar ruhiy-asab kasalliklari shifoxonasida (53 nafar), 560-sonli ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotida (21 nafar), Toshkent shahridagi 480-KTIMTT (15 nafar), Qo‘qon shahridagi 39-KTIMTT (17 nafar), Samarqand shahridagi 78-KTIMTT (11 nafar)da o‘tkazildi. Tajriba guruhida (TG) 58 nafar, nazorat guruhida (NG) esa 59 nafar maxsus ta‘limiy dasturlarsiz o‘qitilgan BSF natijasidagi spastik dizartriya bolalar ishtiroki ta‘minlandi. Ta‘limiy tajriba-sinov bir o‘quv yili davomida olib borildi.

Ta‘limiy tajriba-sinov “Serebral falajli 4-5 yoshli bolalarda spastik dizartriya miofunktional korreksiya va logopedik massaj asosida bartaraf etish” nomli ta‘limiy dasturni ishlab chiqishni taqozo etdi va ta‘limiy tajriba mazkur dastur asosida tashkil etildi.

Ta‘limiy tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni

bajarish nazarda tutildi: maktabgacha yoshdagi bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq ularning miofunktsional holatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; shuningdek, BSF buzilishlari natijasida spastik dizartriya rivojlangan bolalarning reabilitatsion ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan o'quv-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish va amalga oshirish.

Ta'limiy tajriba-sinov o'z ichiga 4 ta davrni qamrab oldi va har bir davrda ma'lum bir vazifalarni hal etish ko'zda tutildi.

I davr – saralash va tashxislash bosqichi (1–15 sentabr): ta'limiy tadqiqotga BSF natijasidagi spastik dizartriya bolalar jalb etildi.

II davr – ta'limiy tadqiqotning I bosqichi (tayyorgarlik davri, 15 sentabr-noyabr): ushbu davrda o'tkaziladigan ishlarning maqsadi miofunktsional korreksiya va differensiallangan logopedik massaj integratsiyasi yordamida orofatsial soha mushaklarini normallashtirish bilan parallel ravishda nutqiy komponentlarni rivojlantirish orqali artikluyatsion baza yaratishdir.

